

VEGETATIV KO'PAYADIGAN QULUPNAY NAVLARINI O'SISHI VA RIVOJLANISHINING MORFO-BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yusupova Kamola Qosimovna

Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ilmiy maqola issiqxona sharoitida qulupnay ko'chatlarini zamonaviy usulda intensiv ravishda yetishtirishni o'rganishga bag'ishlangan. Tajriba davomida sifatli ko'chatlarni yetishtirish bo'yicha amaliy tajribalar olib borilgan. Qulupnayning yuqori sifatli ko'chatlarni yetishtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bilan birga, eng ilg'or zamonaviy usullari ishlab chiqildi. Bundan tashqari, maqolada substratlarning ko'chatlarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini o'rganish va optimal miqdorlarni ishlab chiqish, qulupnay ko'chatlarini yetishtirishga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlari – *qulupnay, ko'chat, xona, vegetatsiya, ildiz novda va barg.*

O'zbekistonda meva va rezavor-meva ekinlarining 108 ta turi uchraydi, 73 ta turi madaniylashtirilgan bo'lib, shundan 25 ta turi keng tarqalgan. Meva daraxtlari, mevalarining yirikligi, rangdorligi, yaxshi saqlanishi, tashishga chidamliligi hamda sanoat uchun qimmatbaho xom-ashyo ekanligi va to'yimliligi, bir yerda uzoq yashab mo'l hosil berishi bilan boshqa ekinlardan farq qiladi. Boshqa xorijiy davlatlardan ham ko'pgina meva va rezavor-meva ekinlar navlari olib kelinib, sharoitga moslashtirildi. Bugungi kunda qulupnay navlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ishlab-chiqarishga yirik mevali, yuqori hosilli, har xil kasalliklarga va noqulay sharoitlarga chidamli navlar kerak. Rayonlashtirilgan navlar majmuida juda erta pishar va kech pishar navlar yo'q. Shunga ko'ra qulupnay mavsumi qisqa muddatlar bilan chegaralanib qolgan. Qulupnay hosilini bir necha marta yig'ib olishga to'g'ri keladi. Hosili bir paytda, qiyg'os pishadigan navlar ham iqtisodiy, ham tashkiliy jihatidan katta ahamiyatga ega. Qulupnay mevalari juda nozik, ularni uzoq masofaga

olib borish qiyin. Shuning uchun tig'iz etli qulupnay mevalari transportda tashishga va mexanizatsiya yordamida yig'ib olishga ancha qulay. Qulupnayning 30 ga yaqin turi bor. Vegetativ yo'l bilan ko'paytiriladigan o'simliklarda individual rivojlanishning boshlanishi vegetativ qismlardan yangi o'simlik hosil bo'lish vaqtiga to'g'ri kelmaydi. Bu holda yangi o'simlik urug'dan o'sib chiqqan ona individning hayot siklini davom ettiradi. Shuning uchun, individ termini faqat boshlang'ich urug' ko'chatga, ya'ni urug'dan o'sib chiqqan o'simliklarga taalluqlidir, faqat shular barcha individual rivojlanish stadiyalarini o'tadi. Mazkur ko'chatlarning ayrim qismlaridan ko'paytirilgan o'simliklar esa individ emas, balki klon individi deb ataladi.

I.V.Michurin meva o'simliklari urug' ko'chatining yoshini: embrionlik, yoshlik (yuvenil), mahsuldorlik va qurish (qarish) davrlaridan iborat to'rt davrga bo'lgan.

Mahsuldorlik davrida o'simliklarning yer ustki va yer ostki qismi maksimal darajada kattalashadi, shox-shabbasining strukturasi va hosil qilish tipi shakllanadi. Bu davr eng uzoqqa cho'ziladi va qancha davom etishi o'simliklarning irsiy asosiga, tabiiy sharoitga va parvarish qilish usullariga bog'liq bo'ladi.

O'simliklar hayotining uchinchi davri oxiriga kelib o'sishdan to'xtaydi, shoxlarining uchki qismlari quriy boshlaydi, so'ngra rivojlanishining oxirgi – qarish, ya'ni qurish davriga kiradi. O'zgarishlarga moyilligi yo'qolgan o'simliklarning tashqi muhitga moslashish, regeneratsiya (tiklanish) xususiyatlari susayadi. Tanasida oqsil tiklanishi qiyinlashadi, moddalar almashinuvi susayadi. Bularning hammasi hujayralar nobud bo'lishiga va o'simliklarning qurishiga sabab bo'ladi. Nihoyat, yangidan hosil bo'layotgan hujayralar nobud bo'layotgan hujayralarning o'rnini to'ldira olmay qoladi. Natijada o'simlikning ayrim qismlari, to'qima va hujayralari orasida modda almashinuvi buziladi hamda fiziologik xususiyatlari – o'sishi, kurtak chiqarishi, gullashi, mevalari pishishi sekinlashadi va pirovardida daraxt qurib qoladi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, qulupnayning kolleksion navlarida o'ta talabchanlik turlicha bo'ldi. Tadqiqot yillarida gullash fazasi aksariyat qulupnay

navlarida faol harorat yig'indisi +201,5 dan +274,8 °S gacha bo'lganda boshlandi. Qulupnayning erta gullovchi navlarida gullash fazasi faol harorat yig'indisi +201,5 dan +230,4 °S gacha bo'lganda kuzatiladi, kech gullovchi navlar uchun 1,3 marta ko'proq issiqlik energiyasi, ya'ni +269,3 dan +274,8 °S gacha harorat yig'indisi talab etilganligi qayd etiladi. Qulupnay ko'chatlarini yetishtirish jarayonida ko'chatlarni ildiz otish darajasi ona o'simlikdan rivojlangan gajaklardagi ko'chatlarni tartib bilan joylashuviga qarab ularning o'sishi ildiz tizmining rivojlanishi va boshqa ko'rsatkichlari bilan bir biridan qisman farq qilishi tajribalarimiz davomida aniqlandi. Bunda ona o'simlikning gajaklarida joylashgan 1 chidan 4 chi navbatdagi ko'chatlar tajriba sifatida o'rganildi. Aytish joizki ushbu tartibdagi ko'chatlar ma'lum bir muddat davomida fenologik kuzatuvlar olib borilganda ulardagi vegetativ organlarni rivojlanish darajalari bir biriga taqqoslanganda qo'yidagicha tofovutlar aniqlandi (1-jadval, 1-rasm).

1-jadavl

Qulupnayning Salhiyan navini ko'chatini yetishtirishda gajaklaridagi ko'chatlarni ildiz otishiga ularning navbat bo'lib joylashishining ta'siri (2023y.)

Ona o'simlik gajaklaridagi ko'chatlar tartibi	Sana		Ildizlar soni va uzunligi (o'sishni boshqaruvchi moddalar ta'sir etilgan)		
	ko'chat ekish muddati	dastlabki ildizlarni paydo bo'lish muddati	7-kun	14- kun	21-kun
1-tartib ko'chat	10.08.23	15.08.23	$\frac{4-6}{2-2,5}$ sm	$\frac{6-10}{4-6}$ sm	$\frac{10-12}{8-10}$ -sm
2-tartib ko'chat		18.08.23	$\frac{2-3}{2-2,5}$ sm	$\frac{4-6}{3-4}$ sm	$\frac{6-8}{4-6}$ -sm
3-tartib ko'chat		22.09.23	$\frac{1-2}{1-1,5}$ sm	$\frac{3-4}{2-3}$ sm	$\frac{4-5}{4-6}$ -sm
4-tartib ko'chat		25.09.23	=	$\frac{1}{1}$ - sm	$\frac{1-2}{2-3}$ -sm



1-rasmda. Qulupnay ko'chatlarini ekish va joylashtirish qayd etilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki qulupnay ko'chatlarini jadal yetishtirishda gajaklardagi tartib ko'chatlardan 1,2,3 navbat ko'chatlarni ildiz otish darajasi yuqori ko'rsatkichda bo'ldi. Qulupnayning 1,2,3 tartib ko'chatlari ildiz otish darajasi ijobiy ko'rsatkichda bo'lib 19-20 kun davomida tayyor ko'chat bo'lib shakllanganligi kuzatildi.

Xulosa Qulupnay ko'chatlarini yetishtirishda substrat turlaridan torf, vermikulit va biogumus turlaridan tuproqqa 1/1 nisbat tayorlangan substratlarda tuproqqada tayyorlangan substratga nisbatan ko'chatlarni ildiz otish darajasi 18-20 % yuqori ko'rsatkichda bo'lganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Аверина Л.И, Агробиологическое и технологическое изучение сортов земляники зарубежной селекции (Автореферат канд. диссертации). М., 1962.
2. Аверина Л.И. Зарубежные сорта земляники. /Ъ Ж. «Садоводство», 1962, №5. с.35 36
3. . Агапова М.В. Физиолого-биохимическая характеристика некоторых сортов плодовых и ягодных культур / Материали первой Уральской зональной НПК по садоводству, Пермь, 1971, с.39 44.
4. Агафонова З.Й., Иванова Л.Т. Виривание здоровой рассады земляники в северо-западной зоне. / Научные труды Сев.-Зап. НИИСХ, 1973. вип.25., с.76-78.
5. Айтжанова С.Д. Селекционная оценка устойчивости земляники к грибным болезням листового аппарата. / Сб. научн. трудов «Новое в ягодоводстве Нечерноземья», М. 1990, с.26 34.
6. Андреева В.И. еще о борьбе с нематодой /Ж. «Садоводство», №3, 1970, с.27.